

## CHET TILIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

**N.Merganova** - pf.f.d. (PhD),  
FarDU nemis tili o‘qituvchisi  
[parizod\\_de@mail.ru](mailto:parizod_de@mail.ru)

**M.Jaloldinova**  
FarDU nemis tili yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada chet tilda og‘zaki nutqni rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy ta’sir, motivatsiya kabi omillarning roli, nutqni rivojlantirishdagi usul va texnologiyalar kabilar to‘g‘risida so‘z boradi.*

***Kalit so‘z va iboralar:** ruhlantirish, til tajribasi, motivatsiya, ta’lim strategiyalari, til qobiliyati, ziyolilik, ijtimoiy-siyosiy ta’sir.*

Oliy o‘quv yurtlarida chet til o‘qitishning amaliy maqsadlaridan biri og‘zaki nutqni o‘rgatishdir. Mazkur oliy o‘quv yurtlarining dasturiy talablariga binoan, talabalar chet tilda og‘zaki axborot berish, suhbatlasha olish va o‘rganilgan mavzuga bog‘liq chet tildagi nutqni tinglab tushunish malakalarini egallashlari talab etiladi. Chet tilda olib boriladigan muloqot kelajakdagi ixtisoslik faoliyati bilan bog‘liq kasbiy bahs xarakteriga ega bo‘ladi. Talabalar chet til darslarida suhbat va bahs munozarada ishtirok etish davomida quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

1. Axborot so‘rash, auditoriyada axborot bilan chiqish, muhokama qilinayotgan masalalar bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini bildirish, bahslashish, gaplarni bexato tuzish;
2. Muloqotda etiket mezonlariga amal qilish, iltimos, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash, qo‘shimcha ma’lumotlar so‘rash, suhbatdoshini muloqotga tortish, muayyan qolipdagi nutqiy namunalardan foydalanish;
3. Muloqot jarayonida ixtisoslikka oid so‘z va iboralarni qo‘llash, ilmiy tushunchalarni ifodalovchi iboralardan keng foydalanish;
4. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular bo‘yicha ijtimoiy maishiy, siyosiy, madaniy, o‘quv ta’limiy va kasbiy sohalar bo‘yicha muloqot jarayonida axborotlar olish va berish, suhbatdoshni muloqotga tortish, fikr almashish;

5. O'qilgan yoki tinglangan matn mazmuniga tanqidiy baho berish, o'z fikrini bildirish va hokozo. Oliy o'quv yurtlari dasturida chet tilda gapirishni o'rgatish oraliq ta'limiy maqsad bo'lishi bilan bilan birga, u ta'lim vositasi vazifasini ham o'taydi, bu esa gapirish boshqa nutq faoliyati turlarini o'rganilishiga ko'maklashishini nazarda tutadi;

6. Og'zaki nutqni o'rgatishda til tajribasini ishga solish, fikr va mulohazaga munosabat bildirish kabi malakalar shakllantiriladi<sup>1</sup>.

Nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarda og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va og'zaki nutq kompetentsiyasini rivojlantirish yordamida nemis tili darslari samaradorligini oshirishga erishiladi. Amerikalik olim Robert Gardner chet tilda og'zaki nutqqa o'rgatishda unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni tavsiya etadi va 1993 yilda chet tilda og'zaki nutqqa ta'sir etuvchi omillar modelini yaratadi. U o'z tadqiqot guruhi bilan birgalikda chet tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchilar o'rtasida tadqiqot olib borgan va ularda og'zaki nutqni rivojlantirish qanday omillarga tayanishini aniqlagan<sup>2</sup>.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra o'rganuvchilarda asosan til o'rganishga xohish bo'lishi, ruhlantirish, tilni o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat kabilar chet tilda og'zaki nutqni o'stirishga ta'sir qiladigan omillardir. R.Gardner fikriga ko'ra chet tilda og'zaki nutqni amalga oshishida motivatsiya, tilga bo'lgan qiziqish, ta'lim strategiyalari, til qobiliyati, ziyolilik kabilar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Til o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat va motivatsiya ko'proq ta'sirchan til o'rganuvchilarda yaqqol bilinadi.

Klaudiya Riemerning fikriga ko'ra Robert Gardner o'z modelida motivatsiya va qo'rquv o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ifodalaydi, biroq motivatsiya va til o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabat (qiziqish) o'rtasida esa olim o'zaro bog'liqlikni qayd etmaydi<sup>3</sup>. Motivatsiya so'zi ruhlantirish degan ma'noni anglatadi va bevosita til o'rganuvchining ongiga ta'sir qiluvchi omildir. Motivatsiya natijasida kishida chet tiliga bo'lgan munosabat, ya'ni qiziqish paydo bo'ladi. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash

<sup>1</sup> Misirov S. Kasb-hunar kollejlarda ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2007 y.

<sup>2</sup> Gardner, Robert C. & MacIntyre, Peter D. (1993). A student's contributions to secondlanguage learning. Part II: Affective variables. *Language Teaching*, 26, 1-11.

<sup>3</sup> Riemer Claudia. (2006). Der Faktor Motivation in der empirischen Fremdsprachenforschung. In Almut Küppers & Jürgen Quetz (Hrsg.) *Motivation revisited. Festschrift für Gert Solmecke. Hallenser Studien zur Anglistik und Amerikanistik* (S.35-48, Bd. 12). Berlin u.a.: LIT-Verlag.

mumkinki, til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Buni biz chet tili darsi jarayonida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, ba'zi talabalar otanasini xohishiga qarab yoki ingliz tilidan ko'ra o'qishga kirish osonroqligi tufayli nemis tilini mutaxassislik sifatida tanlagan. Ularda kurs boshida loqaydlikni, darsga e'tiborsizlikni kuzatamiz, ularni bu tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va motivatsiya berish maqsadida Germaniyada o'qiyotgan talabalarni misol qilib ko'rsatamiz, stipendiatlarni mashg'ulotlarga taklif etamiz. Tajribadan ma'lumki, har qanday yoshdagi insonga eng avvalo rag'bat, turtki va qo'llab-quvvatlash, ruhlantirish va kichik yutuqlar uning tilga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga xizmat qiladi. Demak, motivatsiya va tilga bo'lgan munosabat o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud.

Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari masalasi nemis olimi B.Taubenbok tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ham o'z aksini topgan. B.Taubenbok maktabdagi chet til darslarini kuzatadi va darsda gapira olmaydigan talabalarni o'rganib chiqib, chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llarini izlaydi va 2007 yilda darslarda og'zaki nutqni rivojlantirishda quyidagi usul va texnologiyalardan foydalanishni tavsiya etadi:

1. Darsda qo'llanilishi zarur bo'lgan metodlarni oldindan o'rganib chiqish.
2. Og'zaki nutqda xatolar ustida ishlashning boshqa malakalarga nisbatan farqli jihatlarini o'rganish.
3. Darsga tanlanadigan ko'rgazma materialini aniq tahlil qilib chiqish.
4. Talabalar og'zaki nutqini rivojlantirishning mezonlarini ishlab chiqish.
5. Darsda og'zaki nutqni rivojlantiruvchi tayyor topshiriqlarga tayangan holda gapirishni mashq qilish<sup>1</sup>.

B.Taubenbok o'zining yuqoridagi tamoyili bilan "maktabda chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirish asosan o'qituvchi zimmasida bo'ladi" degan fikrni olg'a suradi, oliy o'quv yurtlarida esa talabalarning og'zaki nutqini rivojlanishida bevosita o'qituvchi va talaba teng harakat qilishi talab etiladi. Shu bois nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarga darsdan tashqari holatlarda ham gapirishni mashq qilish, kurslarga qatnashish, ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan foydalanish kabilar alohida ahamiyatga ega ekanligi o'qituvchi tomonidan tushuntirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Talabalar o'zlari tilni ongli ravishda o'rganishlari, qanday usul ularga mos kelishi va ularning og'zaki nutqini rivojlanishiga yoki to'sqinlik qilishiga olib keluvchi omillarni bilishlari zarurdir.

1. Ijtimoiy-siyosiy ta'sir (til siyosati, sertifikat, turizmni rivojlanishi).

---

<sup>1</sup> Tesch Bernd. Kompetenzorientierte Lernaufgaben im FSU. Kolloquium FSU Band 38. Frankfurt am Main 2010. S 96.

2. Xalqaro ta'limiy va madaniy aloqalar (talabalar almashinuvi, ish o'rinlari).
3. Til o'rganishga doir xorij tajribalari (internet va axborot kommunikatsiya vositalari, onlayn kurslar).
4. Germaniyaning DAAD va Gyote institutining hissasi (tanlov va musobaqalar, stipendiyalar).
5. Talabalarning nemis tiliga bo'lgan munosabati va qiziqishi, xorijda bo'lish, moddiy ehtiyoj. (1-rasmga qarang).

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash kerakki, talaba biror bir chet tilni o'rganar ekan, bu til bilan u moddiy va ma'naviy ehtiyojni ham inobatga oladi, o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va shu maqsad sari intiladi.



**1-rasm. Germaniyada o'qishning afzalliklari.**

Tajribalar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarning og'zaki nutqini o'stirishda ularning individual xususiyatini inobatga olish, ularni ruhlantirish (motivatsiya berish) va aniq maqsad sari yetaklash (intiltirish), dars jarayonida og'zaki muloqotni ta'minlovchi mashqlardan foydalanish kabilar muhim omillar hisoblanadi. Shu asosda o'qituvchi talabalarning og'zaki nutqini rivojlanish darajasini aniqlash va o'qitish jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirishning ichki omillarini hisobga olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Misirov S. Kasb-hunar kollejlari ingliz tili o'qitishning lingvodidaktik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2007 y.
2. Gardner, Robert C. & MacIntyre, Peter D. (1993). A student's contributions to second language learning. Part II: Affective variables. 26, 1-11.
3. Riemer Claudia. (2006). Der Faktor Motivation in der empirischen Fremdsprachenforschung. (S.35-48, Bd. 12). Berlin u.a.: LIT-Verlag.
4. Tesch Bernd. Kompetenzorientierte Lernaufgaben im FSU. Kolloquium FSU Band 38. Frankfurt am Main 2010. S 96.
5. PZ Sabirjanovna. (2023). [ISSUES OF CULTURE SHOCK IN ADAPTATION TO ANOTHER CULTURE](#). Journal of Modern Educational Achievements 3 (3), 240-244.
6. PZ Sabirjanovna. (2023). [INTERCULTURAL COMMUNICATION AS A THEORETICAL AND PRACTICAL SCIENCE](#). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (12), 456-459.
7. MN Mamadodilovna. (2022) USING NON-TRADITIONAL METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. IJODK
8. OR O'QITUVCHI. 2 (23), 68-71.
9. Mamadodilovna, M. N. (2020). Psychological basis of development of speech in a foreign language. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 10(12), 268-270.
10. Ahrorova, R. U. (2021). SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS REPRESENTING "YOUTH" IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. Theoretical & Applied Science, (7), 122-126.
11. AKHROROVA, R. U. (2021). THE LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD AND THE GENDER ASPECT OF THE CONCEPT OF "AGE" IN FRENCH AND UZBEK. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 585-589.
12. Mukhtorovna, Y. S. (2021). Regularly used phrasal verbs German language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 673-680.

13. QM Mukarramovna, AG Rahmonaliyevna - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022. Nemis tili darslarida enejayzer o'yinlardan foydalanish haqida ayrim mulohazalar. 91-93-bet.
14. Askarova Sh.I. О проблеме языковой интерференции при изучении иностранного языка. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI 5 NOYABR / 2022 YIL / 23 – SON.
15. Jurayeva Sh.X. On the Expression of Words from French Language to Uzbek Language. American journal of social and humanitarian reasearch.
16. SX Tulanov. Categories Conceptuelles Et Linguistiques Du Temps En Français. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT 2 (1), 22-26, 2023.